

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17442514>

XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB- QUVVATLASH MASALALARI

Matkarimov Anvar Tojimatovich

University of Business and Science Moliya kafedrasi o'qituvchisi

bettalife@yandex.ru

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari, aholini ish bilan bandligini oshirish, ishlab chiqarilgan maxsulot va xizmatlar sifatini oshirish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, biznes, davlat, moliyalashtirish, strategiya, yalpi ichki mahsulot, sanoat, davlat-xususiy sherikchiligi.*

KIRISH

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlaridan biri tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotda yetakchi o'rinni egallashi, pirovardida, mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmini oshirishga mehnat resurslarining ahamiyatli qismini ish bilan band qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib... uni hajmini 1,4 barobar oshirish" belgilab berilgan[1].

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri sifatida **xususiy tadbirkorlik** faoliyati e'tirof etilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan xususiy sektor yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va jamiyat farovonligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, har bir mamlakat, xususan O'zbekiston uchun ham xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni **davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash** dolzarb strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning xususiy sektorga tayanishi davlatning bevosita boshqaruv funksiyasidan iqtisodiyotni **rag'batlantirish va tartibga solish** mexanizmlariga o'tishini talab etadi. Bu jarayon, bir tomondan, tadbirkorlik erkinligini kengaytirish, ikkinchi tomondan esa, davlat tomonidan zarur **institutsional, moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlov** mexanizmlarini yaratishni nazarda tutadi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati raqobat, kapital yetishmovchiligi, byurokratik to'siqlar va infratuzilma muammolari kabi bir qator xavf va cheklovlar bilan yuzma-yuz keladi. Shu sababli, davlatning asosiy vazifasi - ushbu to'siqlarni

kamaytirish, tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish hamda xususiy sektorni iqtisodiy o'sishning yetakchi kuchiga aylantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

"Tadbirkor - jamiyatning tayanchi. Davlat esa uning ishonchli hamkori va himoyachisi bo'lishi shart."

Ushbu tamoyil mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning asosiy g'oyasiga aylangan. Oxirgi yillarda O'zbekistonda **tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xususiy mulkni himoya qilish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, imtiyozli kreditlar ajratish, eksportni qo'llab-quvvatlash** bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yil holatiga kelib 60 foizdan oshdi, ish bilan band aholining qariyb yarmi aynan ushbu sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shunga qaramay, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi hali ham takomillashtirilishga muhtoj. Ayrim hududlarda moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, raqobat muhitining to'liq shakllanmaganligi, ma'muriy to'siqlar va byurokratik kechikishlar tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, davlat siyosatining navbatdagi bosqichi - **tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularni innovatsion rivojlanishga yo'naltirish va xalqaro raqobatbardoshlikka erishishga** qaratilgan bo'lishi lozim.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh milliy iqtisodiy modelni shakllantirish jarayonida **xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari** markaziy o'rinni egallaydi. Aynan shu yo'nalish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror saqlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlash mumkin.

Shunday ekan, ushbu mavzuni o'rganishning maqsadi — xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini, amaliy mexanizmlarini hamda O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini tahlil qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bizga ma'lumki, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga bugungi kunga qadar ko'plab olimlar ta'rif berganlar. Tadbirkorlik faoliyatiga birinchi bo'lib I.Shumpeter tarif berishga harakat qilgan. I.Shumpeter tadbirkorlikka shunday tarif beradi:

«Tadbirkorlik faoliyati mansab ham emas, kasb ham emas, u tavakkal qilish asosida bozorga innovatsiyalarning olib kirishning o'ziga xos hisoblangan qobiliyatidir. Tadbirkor - kapitalist emas, tadbirkorlik faoliyati ilgor, yaratuvchan faoliyat bo'lib, iqtisodiyotning raqobat asosida qayta qurishning muhim manbai hisoblanadi».

Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan R. Xizrich tadbirkorlikni ma'lum qiymatga ega bo'lgan mahsulot yaratish jarayoni sifatida tavsiflaydi:

Tadbirkorlik va kichik biznes sub'yektlari faoliyati bo'yicha amerikalik olimlar K.R. Makkonnell va S.L.Bryular tadqiqotlar olib bordilar. Ular tadbirkorlik faoliyatidagi erkinlikga e'tibor qaratdilar. Ular o'zlarining "Ekonomiks: Printsipy,

проблемы і політика" номлі асарларіда тadbirkorlik erkinligi to'g'risida quyidagilarni ta'kidladilar.

Tadbirkorlik faoliyatining samarasini oshirish ishlab chiqarish resurslari deganda korxona va tashkilotlar faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalari, zaxiralar, korxonaning amal qilishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy qiymatliklar, umuman olganda barcha ishlab chiqarish omillari tushuniladi.

Bu berilgan tariflarda iqtisodiy resurslarni korxonalar faoliyatida qatnashadigan asosiy fondlar, aylanma mablag'lar va mehnat resurslari majmuasi sifatida tushuntiriladi.

METODOLOGIYA

Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini rivojlanishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va iqtisodiy salohiyatidan to'laroq foydalanishga erishish uchun bu korxonalarning bir maromdagi ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish talab etiladi. Bu xolatda uzluksiz rivojlanish strategiyasi samarali hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishni boshqarishning ushbu strategiyasida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning texnik-iqtisodiy reglamentini yaratiladi. Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning texnik-iqtisodiy reglamentini yaratish tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash harakatiga ko'p jixatdan bog'liq. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida tayyor mahsulot bo'lgunga qadar harakatda bo'ladilar, bir qancha ishlab chiqarish bosqichlaridan o'tadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, Ombudsman (qadimgi skandinavchada umbop "vakolat", "zimmasiga yuklash") qator davlatlarda ijro hokimiyati idoralari va mansabdor shaxslar faoliyatida ma'lum fuqarolar guruhining adolat va manfaatlari ta'minlanishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan mansabdor shaxs[2].

Hozirgi kunda ombudsmen instituti boshqaruvining turli shakllari-prezidentlik respublikasi (Finlyandiya, Fransiya, AQSH), parlament respublikasi (Shvesariya, Avstriya, GFR), konstitutsiyaviy monarxiya (Daniya, Norvegiya, Shvesiya, Ispaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada) xukmron bo'lgan 50 dan ortiq mamlakatlar mavjud[3].

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ulushini keskin ortishida namoyon bo'lmoqda.

1-jadval

2024-yilda respublika bo'yicha kichik biznes sub'yektlarining faoliyat turlari kesimidagi asosiy ulushlari (yo'nalishlar kesimida)[8].

Yo'nalish	2024-yil bo'yicha asosiy ulush ko'rsatkichlari (respublika kesimida)
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	Tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi eng yuqori ($\approx 96-97\%$).

Qurilish	Tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi $\approx 75\%$.
Xizmatlar (jamlanma)	Tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi $\approx 40\%$.
Sanoat	Tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi $\approx 22\%$.
Faol sub'yektlar taqsimoti	Kichik korxona va mikrofirmalarda savdo yo'nalishi eng katta ulushga ega ($\approx 38-39\%$ atrofida, choraklar bo'yicha), keyin sanoat/xizmatlar guruhlari.

Mamlakat miqyosida kichik biznes (ayniqsa mikrofirmalar) **savdoda eng ko'p to'plangan**; bu hududlardan qat'i nazar aholi ehtiyojlariga yaqin tarmoqlarga kirishni yengilligini ko'rsatadi. **Qishloq xo'jaligi** va **qurilishda** kichik biznesning **YAIMdagi hisyasi juda yuqori** – viloyatlarda ham shu sektorlar “tayanch” yo'nalish bo'lib qoladi.

Toshkent shahrida xizmatlar va savdo ulushi yuqori bo'lishi tabiiy (moliyaviy, IT, transport, turizm xizmatlari klasterlashuvi, bozor sig'imi). Respublika kesimidagi xizmatlarda kichik biznes hisyasi $\approx 40\%$ atrofida. **Navoiyda** sanoatning ulushi yuqoriroq bo'lishi kutiladi (yirik sanoat infratuzilmalari fonida kichik sanoat kooperatsiyasi). **Fermerchilik salmog'i yuqori** viloyatlarda (Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Namangan va b.) qishloq xo'jaligi yo'nalishida kichik biznes sub'yektlarining nisbiy ulushi yuqori chiqadi; savdo ulushi esa aholi soni va bozor sig'imiga qarab baland bo'ladi. **Amaliy xulosa:** hududiy rivojlanish siyosatida kichik biznesni qo'llashda sektorlar **hududiy nisbiy ustunlikdan** kelib chiqib qo'llab-quvvatlanishi zarur (masalan, Toshkent sh. – xizmatlar innovatsiyasi va savdo logistikasi; Navoiy – sanoat kooperatsiyasi; agrar viloyatlar – agroxizmatlar va qayta ishlash).

Bundan tashqari tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlash va uning barqaror sur'atlarda rivojlanishiga erishish uchun katta miqdordagi moliyaviy mablag'lar zarur. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari o'z faoliyatini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. O'z ichki mablag'lari yetarli bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari esa tashqaridan, kreditlar ko'rinishida moliyaviy resurslarni jalb etishga majbur bo'lmoqdalar.

Ushbu moliyaviy resurslarning qanday shartlar asosida va qanday narxda jalb etilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kelgusida oladigan daromadiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatishi, tabiiy. Shunday ekan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini moliyalashtirish masalasi uning moliyaviy ravnaqini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi zarur. Ushbu holat moliyaviy resurslarning cheklanganligi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Inqirozga qarshi choralar dasturi amalga oshirilayotgan sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotining moliyaviy jihatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu holat, o'z navbatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish va takomillashtirish masalasi yuzasidan chuqur, maxsus ilmiy tadqiqotlar

olib borishni talab etadi[4].

2-jadval:

Asosiy ko'rsatkichlar (2022-2024)

Yil	Ko'rsatkich	Ma'lumot	Izoh
2022	Xususiy kichik va o'rta korxonalar soni (yoki faol korxonalar)	488 936 ta kichik korxona ro'yxatda ekanligi qayd etilgan. Trend	Bu raqam sohada ro'yxatdan o'tilgan kichik korxonalarning o'sish sur'atining 2023-24 yillarga tayanchini beradi.
2023	Xususiy kichik korxona soni	555 971 ta kichik korxona ekanligi bildirilgan. Trend	2022 yildan 2023 yilga ko'ra sezilarli oshish kuzatilgan — bu qo'llab-quvvatlash siyosatlarining muayyan natijasi sifatida qabul qilinishi mumkin.
2024	Xususiy kichik korxona soni	614 897 ta kichik korxona ekanligi qayd etilgan. Trend	Shu bilan birga, 2024 yilda ham o'sish davom etgan.
2023	Qo'llab-quvvatlash fondi va dasturlari hajmi	2023-yilda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturiga — 6 trillion so'm + 1.2 mlrd \$ ajratish haqidagi qaror qabul qilingan. UzDaily.uz	Moliya qo'llab-quvvatlash hajmining ko'rsatkichi ortgani, davlatning kichik biznesga e'tiborini oshirgani isboti.
2024	Mikrofinans xizmatlar hajmi	2024-yilda mikromoliyaviy xizmatlar hajmi 83 trln so'mga yetgan, bu 2023 yilga nisbatan ~86% o'sishni anglatadi. UzDaily.uz	Bu raqam xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish hajmi va imkoniyatlarining kengayganini ko'rsatadi.

Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi 2-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, unda 2022-2024 yillar davomida xususiy tadbirkorlik sektori son jihatidan barqaror o'sishni ko'rsatmoqda: kichik korxonalarning soni 488 936 dan 614 897 taga oshgan. Bu o'sish davlat qo'llab-quvvatlash siyosatlarining samarasi sifatida qaralishi mumkin. Qo'llab-quvvatlash mablag'larining hajmi ham oshgan. 2023-yilda 6 trillion so'm + 1.2 mlrd dollar miqdorida dastur ajratilishi — sektorni rag'batlantirish maqsadida qilingan muhim chora. Mikromoliyaviy xizmatlar hajmining 2024-yilda 83 trln so'mga yetishi - tadbirkorlik uchun kredit va mikrofinans resurslari kengayayotganini bildiradi. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, davlat xususiy tadbirkorlikka moliyaviy va institut-siyonal qo'llab-quvvatlash orqali e'tibor qaratmoqda. Ammo sonfaoliyat tarkibi, sektorlar bo'yicha taqsimot, eksport faoliyati kabi qo'shimcha ma'lumotlar cheklanganligi bilan tahlilni chuqurlashtirishga ehtiyoj bor. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati son o'sishiga qaramay, bir qator hududlar, infratuzilma va raqobat muhitida

farqlar mavjudligi, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati mintaqalar bo'yicha turlicha ekanligi tahlil manbalarida qayd etilgan.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil ushbu sohani moliyalashtirish muammosidir. Mazkur muammoni ijobiy hal etish orqali xususiy sektor sub'yektlarining mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi o'rni ortib boradi. Bu borada davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish orqali ijtimoiy sohalaridagi mavjud muammolarni hal etish imkoniyati ortadi.

Jumladan, Davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish orqali xususiy sektorda maktabgacha ta'lim tashkilotlari jadal rivojlanmoqda. Bu esa ta'lim tizimida sof raqobatni yuzaga keltirib, ularda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xususiy tadbirkorlikni taraqqiy etish sur'atlari keyingi yillarda barqaror bo'lishiga qaramasdan ushbu korxonalarning ko'lamlari unchalik katta emas. Aksariyat hollarda ushbu korxonalar bozorda muayyan mavqeni egallagan bo'lsalar-da, ishlab chiqarishni kengaytirishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi muammosiga duch kelmoqdalar. Ushbu muammo fikrimizcha, bir tomondan mamlakatda moliyaviy resurslarning umumiy taqchilligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, xususiy sektorda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarning aksariyat hollarda moliya bozorida ishtirok etish ish ko'nikmalariga ega emasliklari, hamda mamlakatimizda moliya bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi va takomillashmaganligi bilan bog'liqdir.

MUXOKAMA

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikni ayrim sohalarini investisiya bilan ta'minlash yo'nalishlari ishlab chiqilgan ammo ulardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha ma'lumotlar kam uchraydi. Xozirda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida chet el investisiyalarni asosan yirik korxonalarga yo'naltirish urfga aylangan. Ammo xorij investisiyalarini har bir hududlarni o'rganib keyin kichik biznes sohalariga asosan istiqbolli kichik biznes sub'yektlariga ham yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda kichik biznes sohasini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiriladi:

❖ mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkning ustuvorligini mustahkamlash va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tadbirkorlikka ko'prok erkinlik berish;

❖ tadbirkorlik sub'yektlarini ko'rish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarga ulash, noturarjoy xonalari va zarur yer uchastkalarini ajratib berish borasida masalalarni hal etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni qabul qilish;

❖ biznes sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyoz va preferensiyalar berish;

❖ tadbirkorlik sub'yektlariga kreditlar berish mexanizmini soddalashtirish va ularning hajmini oshirish, birinchi navbatda, investisiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoya shakllantirishga kreditlar ajratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun o'rta va uzoq muddatli kreditlar berish;

❖ sanoat tarmoqlarida tadbirkorlik rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga

asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish, kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish tizimini yanada rivojlantirish lozim.

Shu bois tadbirkorlikni qonuniy huquqlarini himoya qilish, ularning faoliyati kafolatlarini kuchaytirish, respublika shaharlarida balki, uzoq qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-bir bilan chambarchas bog'lik keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorlarning, tadbirkorlik va kichik biznes maqomi, kichik biznes sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari belgilab berildi.

Bu borada har bir xudud o'zini imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlarini kelgusi istiqboldagi iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalarini belgilab olmoqda.

XULOSA

Xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning, ijtimoiy barqarorlikning va innovatsion taraqqiyotning asosiy shartidir. Davlatning maqsadi - biznesni nazorat qilish emas, balki **tadbirkorlik uchun qulay ekotizim yaratish**dir. Shu orqali mamlakatda o'rta sinf shakllanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiy mustaqillik mustahkamlanadi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida ya'ni yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda qabul qilingan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish orqali, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi. Bunday tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizda xususiy sektorni yanada rivojlantirishga va aholini turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. T.: "O'zbekiston", 2022 y.
2. Olim Sabirovich Kazakov Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. "Fan ziyosi" nashriyoti, 2021 yil M.Meskon, M. Albert, F.Xedouri. Основы менеджмента. М. Дело, 1992.: -С.489.
3. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conference Zone. – 2022. – S. 129-133.
4. M.Ya. Pogorelova. Ekonomicheskij analiz: teoriya i praktika: Uchebnoye posobiye / M.Ya. Pogorelova. - M.: IS RIOR: NIS INFRA-M, 2016. - 290 s. c.86].
5. L.I.Abalkin, O.I. Volkov i dr. Ekonomika predpriyatiya (firmy): Praktikum / Red. O.I. Volkov, V.Ya. Pozdnyakov. - M.: INFRA-M, 2016., c.91].
6. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss.avtoref. – T.: 2005-39 b.
7. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistika to'plam. Toshkent, 2020 y.190b.
8. www.stat.uz sayti ma'lumotlari.